

## **SHAXS FAROVONLIGI INDEKSINI IJTIMOIY- PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**Orziqulova Charos Raxmatovnaning**

Mirzo Ulugbek nomidagi Milliy universitet

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya kafedrasи Psixologiya yo`nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy-siyosiy o'sishining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Inson farovonligi va rivojlanish indeksi (Human development index, IFRI) – bu bir yil davomida YaIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushi, aholining savodxonlik darajasi, uzoq umr ko‘rish da- vomiyligini baholaydigan ko'rsatkichdir. U standart o'lchov sifatida turli hududlar va mamlakatlar hayoti o'lchovi hisoblanadi. Uning natijalari ilmiy maqolalar va statistik to‘plamlarda beriladi. Bu indeks o'lchov sifatida birinchi bor 1990 yil po-kistonlik Mahbub ul-Hakim boshchiligidagi iqtisodchilar guruhi tomonidan taqdim etilgan. Keyinchalik IFRIning konseptual tuzilishi Amar Senning faoliyati tufayli rivojlantirildi.

**Kalit so‘zlar:** Farovonlik indeksi, xalqaro reyting, natija, YaIM, ko`rsatkich, statistika.

### **KIRISH**

IFRIni hisoblashda uch ko'rsatkich hisobga olinadi:

YaIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri kela- digan qismi (AQSh dollarida); ta’lim, mamlakat aholisining savodxon- lik darajasi (2/3 nisbatda), hamda ta’lim olayotganlar 6 yoshdan 23 yoshgacha (1/3 nisbat- da)<sup>1</sup>;

o‘rtacha umr ko‘rish darajasi, kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi.

Inson faoliyatining tahlilini olib boruvchi tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat va miqdor ko'rsatkichlari tahlilini doimiy ravishda olib borib, tahlil orqali davlatlarning rivojlanish darajasini kuzatib boradi. IFRI ko'rsatkichidan tashqari, ilmiy asoslangan va ishlab chiqilgan yana bir qator ko'rsatkichlar bor, ular<sup>2</sup>:

*inson kamolotining rivojlanish in- deksi*, uzoq umr, ta’lim, farovon hayot ko‘r-satkichlari orqali jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlilqiladi;

*sog‘lig (uzoq umr ko‘rish) indeksi*, aholi sog‘lig‘i darajasini turli kasalliklarning rivojlanish darajasi, tug‘ilish, onalik o‘limi ko‘rsatkichlari orqali tahlil qiladi;

*ta’lim indeksi*, mamlakatda ta’lim oluvchilar saviyasi darajasining tahlilini amalga oshiradi;

*aholi daromadlari indeksi*, aholi da- romadlarining qiyosiy darajasini tahlil qiladi;

*kasbiy ta’lim indeksi*, ta’lim oluvchilarining ikkinchi va uchinchi bosqichi sifati- ni tahlil qiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

2010 yilgacha bu ko'rsatkichlar keng qo'llanildi, bir qator jahon tashkilotlari to- monidan o‘rganib kelindi. 2010 yilga kelib, IFRIning bir qator kamchiliklari, jumladan, ichki tabaqalashuv, gender tengsizlikinobatga olinmaganligi sababli, u quyidagi ko'rsatkichlar bilan to‘ldirildi:

*inson kamoloti indeksi*, ijtimoiy- iqtisodiy tabaqalashuvni o‘rganish;

*gender tengsizlik indeksi*;

*kambag‘allik darajasining yuqori yokipastligini aniqlovchi indeks*.

<sup>1</sup> Bushuev V.V., Golubev V.S., Korobeynikov A.A., Selyukov Yu.G. Chelovecheskiy kapi- tal dlya sotsiogumanitarnogo razvitiya. — M.: IAS “Energiya”, 2018. —b. 96.

<sup>2</sup> Donatella Medouz, Yorgen Randers, Dennis Medouz. Predel rosta: 30 let spustya. — M.: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2019. —b. 353.

IFRIning mazmunidan kelib chiqib, mamlakatlarning juda yuqori (42 mamlakat), yuqori (43 mamlakat), o‘rtacha (42 mamlakat) va past (42 mamlakat) darajasi hisobga olinadi. Human development index (IFRI)ni, shuningdek, Gumanitar rivojlanish indeksi deb ham atashadi. Davlat o‘zining rivoji va ravnaqi yo‘lida kadrlar, aholi sog‘lig‘i, daromadlari masalasiga alohida e‘tibor qaratadi, ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqni, aholi tinchligi va farovonligini qadrlashga, ular yuzasidan qator chora-tadbirlar, ma’naviy va moddiy yordamlar amalga oshirishga doimo harakat qiladi.

Agar mamlakatda IFRI 80 va undan yuqori bo‘lsa, unda insoniy rivojlanish yuqori ko‘r-satkichga, 50 dan 79 gacha – o‘rtacha, 50 dan past bo‘lsa, past rivojlanish darajasiga ega, deb hisoblanadi. IFRIna, shuningdek, YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushi, iste’mol sa’vatchasi, o‘rtacha yashash darajasi, YaMM- ning aholi o‘rtasidagi taqsimoti ham ta’sir ko‘rsatadi. Insonning ijtimoiy rivojlanishi (o‘lim, tug‘ilish, umr ko‘rish darajasi va boshqalar) iqtisodiy ko‘rsatkichlar kabi qisqa vaqtida katta o‘zgarishlarni bermaydi. Shuning uchun YaMMning o‘sishini insonning ijtimoiy rivojlanishi dinamikasi bilan solishtirib bo‘lmaydi. Uning dinamikasi davlatning ijtimoiy siyosatiga bog‘liq. Agar siyosat ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lsa, unda aholi turmush darajasi yuqori ko‘rsatkichlarga ega deb hisoblanadi. Agar siyosat ijtimoiy yo‘naltirilmagan bo‘lsa, unda aholi orasida boyalar va kambag‘allar orasidagi tengsizlik keskin ravishda bo‘ladi, qashshoqlik aholi o‘rtasida hatto ko‘pchilik qismni tashkil etadi<sup>3</sup>.

Jahon insoniy salohiyati reytingida yaxshi o‘rinni egallah uchun mamlakat-da tibbiyat tizimi, aholi turmush tarzi (o‘lim sabablari) va jamiyatda intellektualsalohiyat (iqtisodiy madaniyat omili bilan birgalikda) darajasini ko‘tarishga erishish lozim. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatning raqobatbardoshligini ko‘rsatuvchi ko‘rsat- kichlar qatoriga kiradi.

Hech qachon birorta indeks jamiyatning iqtisodiy tafakkuri rivojlanish darajasi- ni to‘liq ochib berolmaydi, chunki buni amalga oshirishda albatta bir qator muammolar tu- radi. Quyidagilarni IFRIning asosiy kamchiliklari deb ko‘rsatish mumkin:

ekologik omillarning inobatga olinmasligi;

inson ma’naviy va ma’rifiy rivojlanish jarayonining inobatga olinmasligi;

turli ko‘rinishdagi mamlakatlarning milliy rivojlanish darajalarining baho- lanmasligi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida, IFRIko‘rsatkichi bo‘yicha quyidagilarni taklif qilish mumkin: YaIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushini mamlakat iste’mol sa’vatchasi bilan taqqoslab borish;

IFRI ko‘rsatkichiga ishsizlik darajasini ham kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki aholi iqtisodiy turmush darajasi, farovonlik aholining ish bilan bandligiga va, pirovard natijada, yuqori suratga ega yalpi talabning vujudga kelishiga sababchi bo‘ladi;

aholi salomatligi ko‘rsatkichini tibbiyat va aholi tinchligi bilan bog‘liq qurolli kuchlarga sarf-xarajatlar bilan birgalikdatahlil qilib borish.

YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qismi jahonda oxirgi ikki asrdan beri bir necha bor o‘sdi va o‘sib kelmoqda. Bu jarayon O‘zbekistonda ham kuzatilib kelinmoqda. Demak, mamlakatning o‘z farovonligi va rivojlanishi yo‘lidagi izlanishlari hali nihoyasiga yetmagan. Ularni yanada boyitish va kelajak avlod uchun xizmat qiladigan masalalarni ko‘tarib chiqish mutaxassislarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Donatella Medouz, Yorgen Randers, Dennis Medouz. Predely rosta: 30 let spustya. – M.: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2019. –b. 353.

<sup>3</sup> Matqurbanov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va mil- liy xususiyatlarimizni o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos noyob hodisa. // “Ma’rifat”, 2018 yil 6 fevral, №11.

2. Bushuev V.V., Golubev V.S., Korbeynikov A.A., Selyukov Yu.G. Chelovecheskiy kapital dlya sotsiogumanitarnogo razvitiya. — M.: IAS “Energiya”, 2018. –b. 96.
3. Against the Human Development Index, Bryan Caplan | EconLog | Library of Economics and Liberty.
4. Matqurbanov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va mil- liy xususiyatlarimizni o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos noyob hodisa. // “Ma’rifat”, 2018 yil 6 fevral, №11.
5. Burhonov U. O‘z biznesiga ega yoshlar yurtimizning istiqboldagi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sadi. // “Ma’rifat”, 2012 yil 7 noyabr, № 88.